

Yozyovon tumanida hududga biriktirilgan "O'zkiyosanoat" AJ mas'ullaridan iborat ishchi guruh tomonidan jarayon joyiga chiqqan holda o'rganildi

// 11 February 2026 yil

<https://pda.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/yozyovon-tumanida-hududga-biriktirilgan-o-zkiyosanoat-aj-ma>




O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida 4-28-fevral kunlari ro'yxatga olish jarayonining ikkinchi bosqichi amalga oshirilmoqda.



Yozyovon tumanida hududga birlashtirilgan "O'zkimyosanoat" AJ mas'ullaridan iborat ishchi guruh tomonidan jarayon joyiga chiqqan holda o'rganildi.



Xususan, “Xonobod”, “Yoshlar” hamda “Yuqori soy bo’yi” mahallalari yettiligi ishtirokida muhokamalar o’tkazilib, MFYlar hamda tuman shtabi bilan kundalik hamkorlikni ta’minlash, vazifalarni muvofiqlashtirish, shuningdek, belgilangan topshiriqlarni sifatli, to’liq va belgilangan tartibda bajarish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.



Shuningdek, ro'yxatga olish tadbiri ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniq shakllantirish va hududlar kesimida ishonchli ma'lumotlar bazasini yaratishga xizmat qilishi jarayon mas'ullariga tushuntirildi.